

QADAMJOYLAR VA ZIYORATGOHLARNI GEOGRAFIK O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Turdiboyeva Shaxloxon Xakimjon qizi
Farg'ona davlat universiteti mustaqil
tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sakral landshaft, muqaddas yer, muqaddas makon tushunchalarining mazmun mohiyati hamda qadamjolar va ziyoratgohlarning diniy, madaniy va tabiiy-geografik omillar bilan bog'liqligi tahlil etilgan. Sakral landshaftlarning tabiat bilan bo'lgan ruhiy-madaniy aloqalari yoritilgan. Muqaddas joylarning shakllanishi, hududiy joylashuvi, hamda ularning barqaror rivojlanish va madaniy merosni saqlashdagi roli yoritib berilgan. Qadamjo va ziyoratgohlarning mahalliy urf-odatlar bilan uyg'unligi ilmiy-metodik asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Qadamjo, ziyoratgoh, sakral landshaft, sakral makon, diniy geografiya, madaniy landshaft, diniy e'tiqod, geografik joylashuv, madaniyat, turizm.*

FEATURES OF GEOGRAPHICAL STUDY OF SACRED PLACES AND PILGRIMAGE SITES.

Turdiboeva Shahloxon Hakimjon's girl
Independent researcher at Fergana State
University

Abstract: The article analyzes the essence of the concepts of "sacred landscape", "sacred land", "sacred space", as well as the relationship of sacred places and places of pilgrimage with religious, cultural and natural-geographical factors. The spiritual and cultural connection of sacred landscapes with nature is revealed. The formation, territorial location of sacred places, their role in sustainable development and preservation of cultural heritage are considered. The harmony of sacred places and places of pilgrimage with local traditions is analyzed on a scientific and methodological basis.

Keywords: *Pilgrimage site, sacred landscape, sacred space, religious geography, cultural landscape, religious beliefs, geographical location, culture, tourism.*

ОСОБЕННОСТИ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ СВЯТЫХ МЕСТ И МЕСТ ПАЛОМНИЧЕСТВА..

Турдибоева Шахлохон Хакимжон кызы
Независимый исследователь Ферганского
государственного университета

Аннотация: В статье анализируется сущность понятий «сакральный ландшафт», «сакральная земля», «сакральное пространство», а также взаимосвязь сакральных мест и мест паломничества с религиозными, культурными и природно-географическими факторами. Раскрывается духовно-культурная связь сакральных ландшафтов с природой. Рассматриваются формирование, территориальное расположение сакральных мест, их роль в устойчивом развитии и сохранении культурного наследия. На научно-методической основе анализируется гармония сакральных мест и мест паломничества с местными традициями.

Ключевые слова: Место паломничества, сакральный ландшафт, священное пространство, религиозная география, культурный ландшафт, религиозные верования, географическое положение, культура, туризм.

Inson ma'naviyati va o'zligini shakllantiradigan eng qudratli kuchlardan biri, shubhasiz, diniy e'tiqoddir. Shuning uchun ham odamlar nafaqat o'zining dini, balki umuman dinlar bilan bog'liq qadamjolar va ziyoratgohlarni shaxsan ko'rishga barcha davrlarda katta ishtiyoq bilan intilib kelgan.

Turizm tarixida qadimgi dunyoda va ayniqsa o'rta asrlarda sodir bo'lgan sayohatlarning birinchi ko'rib chiqilgan shakllari diniy motivatsiyaga ega edi. Ammo aynan shunday sayohatlar tajribasi sayohatlarning birlamchi infratuzilmasini, mehmonxona korxonalarining prototiplarini (yashash joylari va mehmonxona uylari - ksenodoxiyalar) va xizmat ko'rsatish sanoatining dastlabki formatlarini (boylar do'konlari, kasalxonalar, hunarmandchilik va savdo rastalari va boshqalar) shakllantirdi. Hatto zamonaviy uyushgan turizm sanoatining asoschisi - baptist ruhoniysi Tomas Kuk ham o'zining birinchi sayyohlik sayohatini hushyor turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida uyushtirgan, "alkogolsiz sayohatlar"ni reklama qilgan va tashkil qilgan, keyinchalik monarx

shaxslarning Quddusga sayohatlarini uyushtirgan. Shunday qilib, diniy motivlar dunyoda turizm industriyasining vujudga kelishi va yanada rivojlanishida sabab-oqibat omillari bo'lib xizmat qilgan, deb hisoblash mumkin [3].

Sakral geografiyada muqaddas joylar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zining maqomi tufayli muqaddas hudud alohida o'zgacha, "ilohiy" xususiyatli makon sifatida qaraladi. Muayyan vaqt davomida oddiy, odatiy bo'lgan makon ancha yuqori, sakral maqom oladi. Hozirgi fanda keng foydalaniladigan "sakral makon" tushunchasi ko'proq din bilan bog'lanadi. Sakral makon deganda odatda butun diniy jabha tushuniladi. Sakral makon muayyan hududning o'zgarishi g'oyasini nazarda tutadi, unga alohida mazmun beradi, boshqacha aytganda atrof odatiy makondan ajralishiga olib keladi. Bu joy energiyaning tugamaydigan manbaiga aylanadi, unga kira olsa, uni tushunib yetsa, bu kuchdan foydalana olsa, muqaddaslik – ma'naviylikka kirishga imkon beradi.

Muqaddas (sakral) yer yoki hudud tushunchasi qadimdan mavjud. Bu tushuncha tabiat-jamiyat-inson munosabatlarining shakillanishi hamda insonning tabiatga ta'sir doirasini kengayib borishi bilan chambarchas bog'liq. Tabiat obyektlari yoki hodisalarini muqaddaslashtirish hamda bunday tasavvurlar makro-va mikrokosm birligini izlab topish maqsadida juda qadim davrlardayoq vujudga kela boshlagan. Ajdodlarimizning ongi muqaddas landshaft, "kuch joyi" oldida sajda qilishdan olamni bir butun tushunishga tomon tadrijiy rivojlanib borgan. Tabiat bilan hamjihatlikda yashagan inson tabiat hodisalarini ilohiylashtirgan, unga sig'ina boshlagan, turli marosimlar o'tkaza boshlagan va shunda sayyoramizda energetik jihatdan ahamiyatli bo'lgan muqaddas joylar yuzaga kelgan [2].

Ayrim sakral joylar xususiyatlari hozirgi paytga qadar olimlar tomonidan o'z izohini topganicha yo'q. Ularning vujudga kelishi va qay maqsadda bunyod qilinganligi to'g'risida faqat gipotezalar va turli afsonalar mavjud (Pasxa orollarning butlari, Naska cho'lidagi rasmlar, Angliyadagi Stounxenj ulkan tosh bo'laklari va boshqalar). Ular ilohiy kuch irodasi bilan biror-bir hodisa sodir bo'lgan joylar, turli kullarning buyuk avliyolari va ularning safdoshlari dafn

qilingan joylar, yo‘qolgan dinlarning muqaddas maskanlari, shuningdek, joylarda tabiatning ko‘rinmas kuchlari yaratgan noyob landshaftlardir.

Diniy jihatdan e‘zozlanadigan muqaddas joylar va obyektlar majmuasi xalq qadimiy madaniyatining muhim qismi bo‘lib, bunday obyektlar madaniy geografik adabiyotlarda sakral landshaftlar deb nomlanadi. Sakral landshaftlarga muqaddas (ilohiy) deb hisoblanadigan va qadrlanadigan barcha hududiy komplekslar kiritiladi. Ular muayyan diniy marosimlarni o‘tkazish, diniy amallarning rivojlanishi, ibodat marosimlarini bajarish tufayli shakllangan va shu maqsadlar uchun mo‘ljallangan.

Hududiy etnik madaniyat ta’siri ostida sakral landshaftlarning hosil bo‘lishi iyerotopiyada (muqaddas joyda) – sakral makonda kechadi. Sakral makon tor (diniy) va keng (aslsakral) mazmunda qaraladi. Diniy makon etnik - madaniy regionni va kult landshaftlarini shakllantiradigan ritual obyektlardan iborat. Etnos va salral o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan joy etnik – madaniy landshaftning shakllanishi uchun dastlabki asos bo‘ladi. Keng mazmunda sakral makon sakral landshaftlardan iborat. Sakral landshaft ham antropogen, ham tabiiy obyektlarni o‘z ichiga oladi. Turli muqaddas va tabarruk joylar, ibodatxonalar va boshqa diniy dargohlar, nekropollar va boshqa tafal landshaftlar (dafn qilish joylari), diniy marosimlar o‘tkaziladigan joylar sakral landshaftlardir. Sakral landshaftni etnosning diniy faoliyati va madaniy merosi (sakral yodgorliklar, majmualar va ansambillar) bilan bog‘liq bo‘lgan etnik-madaniy landshaftning bir qismi sifatida qarash lozim. An’anaviy sakral landshaftlar jumlasiga kult obyektlari va ritual joylar (asl sakral landshaftlar) va tafal landshaftlar kiritiladi.

Sakral joylar (Sacred Site) sakral landshaftning strukturaviy elementi va turli davrlar va dinlarning kult inshoatlari bo‘lgan joylari bo‘lib, unga xos ko‘rinishni (konfiguratsiyani) shakllantiradi. Muqaddas joylar sakral landshaft hududini butunlay yoki qisman band etishi mumkin. Faoliyatning bu turlarining ta’siri nuqtali sakral joylarning mavjudligi bilan cheklanadi va butun kompleksni band etmaydi. Boshqa hollarda sakral landshaft sakral joyga o‘xshash yoki sakral joylar

bunday landshaftning semantik markazlari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Madaniy landshaftdan farq qilgan holda sakral joy hududiy kompleks bo'lmashligi mumkin va u nuqtasimon obyekt – sakral funksiyaga ega bo'lgan tosh, daraxt, buloq va boshqa obyektlar bo'lishi mumkin. Butun geografik topos–tog'ni, vodiyni, daraxtzorni, orollarni, ko'llarni va boshqa shunga o'xshash obyektlarni qamrab olgan sakral joylar sakral landshaftlarga aynan o'xshash bo'ladi.

Sakral landshaftlarni muhim jihatlaridan biri tabiiy-tarixiy genetik xususiyatlariga ko'ra kelib chiqishi, shakllanishi, rivojlanishining makoniy xususiyatlarga ega ekanligidir. Sakral xududlarning muhim funksiyasi ma'naviy ehtiyojlarga xizmat qilishdir. Sakral landshaftlarni tadqiq etishda ularning xududiy joylanishi, kelib chiqishi, funksiyalari muhim ahamiyatga egadir [4].

Sakral landshaftlarni tadqiq etishda sakral xududlarni madaniy landshaftlarning bir qismi sifatida, muayyan funksiyalarni bajaruvchi obyekt sifatida qarash katta ahamiyat kasb etadi. Dunyo miqyosida sakral landshaft tushunchasi mukammal ishlangan ilmiy kategoriya sifatida [Tuan, 1975; Tuan, 1976; Carlson, 1982] e'tirof etiladi.

V.L.Kaginskiy [2001] tushunchasiga ko'ra etnik urf –odatlar va madaniyatiga ko'ga xududlarni semantik va simbolik (ramziy) o'zlashtirish sakral landshaftlarni o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

M.V.Ragulina [2007-2013] sakral landshaftlarni madaniy landshaftlarni bir qismi sifatida tadqiq etishda uning o'zaro bog'liq bo'lgan ma'naviy, obrazli, ramziy va makoniy semantik jihatlarini asosiy jihatlar deb qaraydi. Sakral xududlardagi sakral obyektlarni o'ziga xos funksiyalarini va ular negizida shakllangan etnomadaniy urf – odatlar va madaniyatlarni o'rganish, sakral landshaftlarni tadqiq etishda muhim bosqich hisoblanadi.

V.K.Volovikning e'tirof etishiga ko'ra sakral landshaftlar hududida sakral va profan makonlar mavjud. Uning fikriga ko'ra etnomadaniy landshaftlarni shakllanishida etnoslarning faoliyati birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. [2013,c.4]

Sakral landshaftlarni tadqiq etishda xududiy genetik belgilariga ko'ra tabaqalashtirish ham muhim ahamiyatga egadir. B.S.Gomboev [2006] sakral xududlarni tipologik tabaqalashtirishda: etnik, tabiiy geografik (tog', dasht, suv manbalari va boshqalar), mavsumiy belgilarini hisobga olish zarurligini ko'rsatib beradi.

M.YE.Kuleshova [Kuleshova, 2002] sakral landshaftlarni yirik ijtimoiy madaniy hosila sifatida kishilarning birmuncha katta guruhlar yashaydigan makon, hayot muhiti deb tushuntiradi. Sakral landshaftlar tabiiy – tarixiy va madaniy xududlarni o'zaro bog'liqligi ta'siri va aloqalari doirasida shakllanadi.

Madaniy landshaftdan farq qilgan holda sakral obyektlar hududiy kompleks bo'lmashligi ham mumkin va u sakral funksiyaga ega bo'lgan tosh, daraxt, buloq va boshqa nuqtasimon obyektlar bo'lishi ham mumkin. Madaniy landshaft maydonining asosiy nuqtalari bo'lgan sakral joylar odatda kult amallarining va diniy faollikning markazlaridan iborat bo'ladi va ular butun landshaft rivojlanishini va uning morfologik xususiyatlarini belgilaydi [6].

Har bir xalqning tarixida, dinida va madaniyatida muqaddas hisoblangan joylar – ya'ni qadamjolar va ziyoratgohlar muhim o'rin egallaydi. Odamlar asrlar davomida bunday joylarga borib, ibodat qilgan, duolar o'qigan, ruhiy orom topgan. Bugungi kunda ham bunday joylar ahamiyatini yo'qotmagan. “Qadamjo” va “ziyoratgoh” tushunchalari nafaqat diniy-ma'rifiy ahamiyatga ega, lekin ularni geografik jihatdan o'rganilishi ham muhim hisoblanadi. Bu turdagi obyektlar din, madaniyat va tabiiy geografiya kesishmasida yotadi. Ularning joylashuvi, inson oqimi, iqtisodiy va ekologik jihatlar — bularning barchasi o'ziga xos tarzda birlashadi. Shuning uchun geografik nuqtai nazardan muqaddas joylarni o'rganish – hududning maxsus xarakteristikasini ochish, barqaror rivojlanish va ularni asrash choralarini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

“Qadamjo” – asosan islom dinida keng tarqalgan tushuncha bo'lib, payg'ambarning yoki marhum diniy shaxsning biror joyda bo'lgani, u yerda izlari, marosimlar o'tkazilgani bog'liq manzil sifatida qoraladi. “

Ziyoratgohlar esa — tarixiy, diniy va madaniy jihatdan muqaddas sanalgan, muayyan shaxslar bilan bog‘liq yoki diniy e‘tiqodlar asosida shakllangan hududlar bo‘lib, ular avlodlar xotirasida muqaddaslik darajasiga ko‘tarilgan. Ziyoratgohlar qadimiy xalq an‘analari, tarixiy voqealar va diniy urf-odatlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ularni o‘rganish keng qamrovli kompleks yondashuvni talab etadi. Ular nafaqat diniy-ma‘naviy markaz, balki antropologik, etnologik, arxeologik va madaniy-geografik obyektlar sifatida ham ahamiyatga ega.

Xulosa. Qadamjolar va ziyoratgohlarning geografik jihatdan joylashuvi ko‘plab omillarga, jumladan, diniy e‘tiqodlar, tarixiy voqealar va tabiiy sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Diniy e‘tiqodlar bunday joylarning muqaddasligini ta’kidlaydi, bu joylarga ziyoratga borganlar o‘z maqsadlariga erishish uchun ko‘pincha ushbu joylarni to‘g‘ri va qadrlangan joy sifatida tanlaydilar. Ko‘plab ziyoratgohlar baland tog‘lar, qulay iqlim sharoitlari yoki tabiatning boshqa alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tabiatning ulug‘vorligi va uning muqaddasligi odamlar uchun ilohiy bir narsa sifatida qabul qilinadi. Bu esa ularning ekologik jihatdan tadqiq etishga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi.

Bundan tashqari, ba’zi ziyoratgohlar qadimgi shaharlarda, qadimiy savdo yo‘llarining kesishgan joylarida yoki xalq uchun tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan hududlarda joylashgan bo‘ladi. Bu joylarning o‘ziga xos geografik jihatlari ularga qo‘shimcha tarixiy va madaniy qiymat beradi. Tarixiy joylashuv ko‘plab ziyoratgohlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki bu joylar har doim insoniyat tarixining o‘ziga xos sahifalarini o‘z ichiga olgan.

Qadamjolar va ziyoratgohlarni geografik o‘rganish faqatgina ularning joylashuvi va tabiiy xususiyatlari bilan cheklanmaydi. O‘rganish jarayonida ko‘plab boshqa omillar ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ziyoratgohlar va qadamjolar ko‘pincha hududning tabiiy holda saqlanishiga, madaniy va diniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu joylar aholining diniy e‘tiqodlarini, marosimlarini va an‘analarini shakllantiradi. Diniy amallarni bajarish, tasavvurlarni

mustahkamlash va o'zligini izlash kabi jarayonlar ko'pincha bunday joylarda amalga oshiriladi.

Foydaniilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Carlson Attainment of 10% Conversion Efficiency in Amorphous Silicon Solar Cells (IEEE Photovoltaic Specialists Conf.) California, 1982
2. Цыдыпова Л. С. Особенности сакрального ландшафта баргузинской котловины. География и природные ресурсы. 2016 № 1 с. 125–132
3. Jackowski A., Smith V.L. Polish pilgrim-tourists // Annals of Tourism Research. 1992. Vol. 19. Iss. 1. Pp. 92-106. DOI: 10.1016/0160-7383(92)90109-3.
4. Yi-Fu Tuan "Humanistic Geography", Annals of the Association of American Geographers, 1976 66(2), 266–276
5. Yi-Fu Tuan: "Place: An Experiential Perspective", Geographical Review, 1975 65(2), 151–165 [ui.adsabs.harvard.edu](http://ui.adsabs.harvard.edu/abs/1975GeoRv...65..151T)
6. Шаблий О.И Сакральная география: становление и проблемы развития // Проблемы территориальной организации общества: тезисы докл. науч. конф. – Пермь, 1993. – С 27-28.; 28-б.